

## KIRISH MAQOLASI

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI****Tanzila Kamalovna NARBAYEVA\***

\* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi

Yuborilgan: 2021 yil 31 oktyabr  
Qabul qilingan: 2021 yil 30 noyabr  
Nashr etilgan sana: 2021 yil 9-dekabr

Copyright © 2021 T. Narbayeva, litsenziat O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi. Bu asar [Creative Commons «Attribution» \(«Atributatsiya»\) 4.0](#) shartlari asosida tarqatilgan.

**IQTIBOS KELTIRISH TARTIBI:**

Narbaeva, T. 2021. Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 1, 1 (Dec. 2021), 4–6.  
DOI: <https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345-vol1-iss1-pp4-6>



Korruptsiya – jamiyatni, millatni ich-ichidan yemiradigan, davlatlarni tanazzulga olib keladigan illatdir.

Korruptsiya mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalariga ta'sir qilib, iqtisodiy sohada raqobat mexanizmlarining ishlamasligiga, mulk huquqining poymol qilinishiga, ijtimoiy sohada xalqning tabaqalanishiga, qonun ustuvorligi tamoyilining obro'sizlanishiga, siyosiy sohada esa xalqning hukumatga ishonchi yo'qolishiga olib keladi.

Shu boisdan ham Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'ldi.

Qonun bilan korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Xususan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, chek qo'yish, ularning oqibatlarini, imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash shular jumlasidandir.

O'tgan qisqa davr mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratildi.

Jumladan, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiyaviy omillarga barham berishga qaratilgan 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Parlamentning ikkala palatasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha alohida qo'mitalar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul organlar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, sohada olib borilayotgan ishlarning holatini kompleks o'rganish, qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi.

Milliy kengashga rahbarlik qilish vazifasining aynan Senatga yuklatilishidan ko'zlangan maqsad ham sohada ta'sirchan parlament, ya'ni xalq nazoratini o'rnatish edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida boshlagan ishlarimiz ortga qaytmas tus oldi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida ham alohida ta'kidlab o'tildi.

Xususan, bu borada aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolmasdan, tizimli preventiv choralarni ko'rish, shu asosda korrupsiyaning nafaqat oqibatlarini, balki sabablarini oldindan bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan choralarni amalga oshirish zarurligi qayd etildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirish choralari ko'rilmogda, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash, qurilish hamda davlat xaridlari sohalarida "Korrupsiyasiz soha" loyihalari amalga oshirilmogda.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat ("komplayens-nazorat") tizimi joriy etilmogda.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestrini yuritish yo'lga qo'yilmogda. Bu esa reyestrnga kiritilgan shaxslarning davlat xizmatiga kirishi va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi, saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodlarining ko'rsatilishi kabi boshqa bir qator huquqlardan foydalanishini taqiqlamogda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda ko'plab sohalarda, ayniqsa, davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiya va inson omilini kamaytirishga, shuningdek, turli suiiste'molchiliklarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlar joriy etilmogda. Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali aholiga 150 dan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatib kelinmogda.

Raqamli va onlayn-texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining jamoatchilik oldidagi hisobdorligi oshdi, ular faoliyatining ochiqligi ta'minlanmogda. Bu esa korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning muhim instrumenti bo'lmish jamoatchilik nazorati institutining rivojlanishiga turtki bermogda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat va reyting yurituvchi tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilmogda.

Masalan, "Transparency International" xalqaro tashkilotining Korrupsiyani qabul qilish indeksida O'zbekiston 180 ta mamlakat orasida 2017-yilda 157-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020-yilga kelib, mamlakatimiz o'zni 11 pog'onaga yuqorilab, 146-o'ringa ko'tarildi.

"Jahon odil sudlov loyihasi" xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan yuritiladigan Huquq ustuvorligi indeksining "korrupsiya mavjud emasligi" indikatori bo'yicha O'zbekistonning o'zni 2021-yilda o'tgan yilga nisbatan 19 pog'onaga ko'tarilib, 139 ta mamlakat orasida 70-o'rinni egalladi.

Y. Yana bir misol. "Open data Inventory" xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan yuritiladigan Ochiq ma'lumotlar reytingida O'zbekiston 2020-yilda 187 ta mamlakat orasida 44-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinni egallab, Osiyo davlatlari ichida eng katta o'sish kuzatilgan mamlakat bo'ldi.

Korrupsiyaga qarshi murossasiz kurash yangi bosqichga ko'tarilganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida alohida e'tirof etildi.

Ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekistonni barpo etish borasida Davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan siyosat zamirida ham O'zbekistonni aynan korrupsiyadan holi mamlakatga aylantirish yotibdi.

Buning uchun butun jamiyatimizda bu illatga qarshi barcha sog'lom kuchlarni birlashtirish, jumladan, parlament, ijro hokimiyati va mahalliy vakillik organlari hamda jamoatchilikning yaqin hamkorligini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga egadir.